

**O ‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKOLOGIK MADANIYAT HUQUQIY
TA’SIR CHORALARI****Zoyirov Shaxzod***Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti
Yurisprudensiya ta’lim yo‘nalishi*

Annotatsiya: *Ekologik madaniyat deganda avvalo hozirda dunyoda bo‘lib turgan global o‘zgarishlar va muammolarning asli negizini tushunish, uning kelib chiqish sabablarini anglash hamda tabiat va jamiyat qonun-qoidalariga bo‘ysungan holda yashash tushuniladi. Ekologik madaniyat ham insonlarning umuminsoniy qadriyatlaridan biri hisoblanadi. Har bir huquq sohasida bo‘lgani kabi ekologiya huquqida ham qonunni va tartibni buzganlik uchun javobgarlik mavjud. Buning uchun albatta davlat va jamiyatda o‘rnatilgan normativ hujjatlar katta ta’sir ahamiyatiga ega. Ushbu maqola insonlarning ekologik madaniyati va huquqi buzilganda amaliyotda uchraydigan chora tartiblar yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *ekologik madaniyat, normativ hujjatlar, huquq, ta’sir choralari, global tabiiy o‘zgarishlar, tabiat, ekologik siyosat.*

**ENVIRONMENTAL CULTURE AND LEGAL MEASURES IN THE REPUBLIC OF
UZBEKISTAN****Zoyirov Shakhzod***Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnologies
Jurisprudence field of study*

Abstract: *Ecological culture means first of all understanding the root of global changes and problems in the world, understanding the reasons for its origin and living in obedience to the laws of nature and society. Ecological culture is also one of the universal human values of people. As in the field of law, in environmental law there is responsibility for violating the law and order. For this, of course, the normative documents established in the state and society have a great impact. This article describes the measures that are encountered in practice when the ecological culture and rights of people are violated.*

Key words: *ecological culture, regulatory documents, law, impact measures, global natural changes, nature, ecological policy.*

KIRISH

Barcha davrlardan beri inson va tabiat o‘rtasida juda katta bog‘lik bor. Bu bog‘liqlikni tabiatning o‘zida ko‘rish mumkin. Bu element xuddiki zanjir misoli harakatlanadi. Agarda qaysidir qismi uzilsa boshqa bo‘lagi ham ishlashiga ancha zarar yetkazadi. Ekologik madaniyat ham umumbashariy madaniyatning uzviy bir qismi

hisoblanadi. Ekologiya soʻzi yunoncha soʻz boʻlib “oykos”-uy, “logos”-taʼlimot degan maʼnoni yani borliqdagi barcha tirik jonzotni oʻrganuvchi fan hisoblanadi. Bizga otabobolarimiz bejizga yerni, suvni asrash kerak deb uqtirishmagan. Bu gap soʻzlar zamirida bundan uch ming yil avval paydo boʻlgan zardushtiylik dini yotadi. Zardushtlarning asosiy va bosh kitobi boʻlmish Avestoda yerni, suvni asrash, hayvonlarga ozor bermaslik haqida koʻplab taʼlimotlar mavjuddir. Bizning avlodlarimizning suvni va havoni bulgʻamaslik hamda yerni asrash borasidagi gap soʻzlar hozirga qadar oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan.

Hozirgi kunga kelib esa ekologiya davlat siyosati darajasida qarash muhim hisoblanadi. Chunki soʻnggi yillarda roʻy berayotgan ekologik fojealar nafaqat tabiatga avvalo insonlarning yashash tarziga juda katta taʼsir qilmoqda. Muzliklarning erishi, oʻrmon yongʻinlari, koʻplab suv toshqinlari kabi global muammolar tabiat va jamiyat orasida anchayin katta farqni yuzaga keltirib qoʻydi. Sadikov.uz saytida maʼlumot berilishicha, sanoatdan oldingi davrdan boshlab, aynan insonlarning faoliyati yerning haroratini 1 daraja Selsiyga (Farengeyt boʻyicha 1.8darajaga) oshirganligi aytib oʻtilmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasida ekologiyaga oid koʻplab chora tadbirlar ammalga oshirilmoqda. Bosh qomusimiz boʻlmish Konstitutsiyamizning 62-modda quyidagicha: (Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda boʻlishga majburdirlar). Koʻrinib turibdiki davlat ekologiyani mustahkamlashni va insonlarning farovon hayot kechirishini normativ huquqiy hujjatlar asosida mustahkamlab qoʻyibdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Jamiyatning tabiatdagi hodisalarga va ekologiyaning salbiy tomonga oʻzgarishiga befarq emasligini Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikada koʻkalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 2021-yil 30-dekabrda PF-46-son Farmoni hamda “Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 2021-yil 30-dekabrda PQ-76-son qarorlarida yorqin ifodasini topgan. Bu qarorlar zamirida jamiyatdagi barcha shaxslarni atrof muhitga eʼtiborsiz boʻlmaslikka chaqirish, tobora jadallashib borayotgan muammolardan biri boʻlgan choʻllanish va qurgʻoqchilikni oldini olish, koʻkalamzorlashtirishni ragʻbatlantirishdan iborat. Bekorga tarix fani maktablarda yillar davomida oʻqitilmaydi. Tarixni oʻqitishdan asosiy maqsad esa moziyda yoʻl qoʻyilgan xatolardan oʻrnak olib uni takrorlamaslikdan iboratdir. Masalan yaqin oʻtmishimizga boqadigan boʻlsak XX asrning 60-yillarida boshlangan va bugungi kunga kelib butunjahon boʻyicha katta ekologik fojeaga aylanib ulgurgan Orol muammosidir. Sobiq sovet tuzumi davrida suvdan oqilona foydalanish oʻrniga katta ekin maydonlari yanada kengaytirildi. Bu haqda quyidagi maʼlumotlar fikrimizni isbotlaydi. Oxirgi 40-45 yil davomida Orol dengizi sathi 22 metrga pasayib ketdi, akvatoriya maydoni 4 martadan ziyodga kamaydi, suv hajmi 10 baravargacha (1064 kub km dan 70 kub km)

kamaydi, suv tarkibidagi tuz miqdori 112 g/l gacha, Orolning sharqiy qismida esa 280 g/l gacha yetdi. Orol dengizi deyarli “o‘lik” dengizga aylandi. Bu fojeaning yaqqol ta’siri dengiz atrofida yashovchi aholi ya’ni qoraqalpoqlar, Xorazm hamda Buxoro viloyatida istiqomat qiluvchi insonlarning hayot tarzi va albatta sog‘ligiga katta zarar yetkazdi.

MUHOKAMA

Balki bu kabi muammolarni yechimi yo‘qdir, balki orolni jonlantirib bo‘lmas lekin mana shu xatoni boshqa takrorlamaslik va orolbo‘yi hududining ekologik ahvolini bir me’yorda ushlab turish hamda shu hududda yashovchi aholining turmush tarzini yaxshilash bo‘yicha chora tadbirlar ko‘rish davlat va jamiyat oldida turga eng katta vazifalardan biri hisoblanadi. Muhtaram Prezidentimiz tashabbuslari bilan hozirgi kunda yurtimizda “Yashil makon” umummilliy loyihasi targ‘ib qilinmoqda. Bu loyihaning asosiy maqsadi Respublika hududida ko‘kalamzorlashtirishni jadallashtirish hamda joylardagi daraxtlar hamda noyob o‘simliklarning muhofazasi kuchaytirilmoqda.

Albatta shu bilan birgalikda dunyodagi eng muhim manba hisoblanuvchi suv ham ahamiyatga molik hisoblanadi. Ko‘plab hollarda biz ko‘chalarda suvlarning isrof bo‘lishini yoki bo‘lmasam tomorqalarning chuchuk suv manbalari bilan sug‘orilishini kuzatamiz. Xalqimizda “suv tekin” degan ibora mavjuddir. Lekin bu ibora faqatgina yaxshi maqsadlarga xizmat qilishi zarur deb o‘ylayman. Aynan shu masalaga 2023-yilda juda katta ahamiyat qaratilmoqda. Shuning bilan birgalikda chuchuk suv manbalari va zaxiralarini saqlash, o‘z maromida ishlatish normativ hujjatlar bilan mustahkamlab qo‘yilmoqda. Gazeta.uzning xabar berishicha ayni shu maqsadga muvofiq joriy yilning 1-avgustidan boshlab Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida, 20-avgustdan Toshkent viloyatida ichimlik va oqova suv xizmatlari tariflari oshirildi. Bu amalga oshirilgan chora tadbirlar o‘z navbatida aholining barcha qatlamlarini chuchuk suv bilan taminlashga qaratilgan.

Har bir insonning umuman olganda tabiatning rivoji ayniqsa havoning tozalik darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Shahar va boshqa hududlarda daraxtlar va flora olamining qanchalik boy bo‘lishi insonlarga shunchalik toza havo baxsh etadi. Bu vaziyatga Vazirlar Mahkamasi o‘zining 19.02.2020 yilda kuchga kirgan “Davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar butalarning qimmatbaho navlarini saqlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bilan munosabat bildirgan. Bu qarorda aytilishicha O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi ishlab chiqiladi. Bu ishlar shaxsan Prezident nazorati ostiga olindi.

NATIJALAR

Barcha huquq sohalarida bo‘lgani kabi ekologiya huquqida ham tartibga solib turuvchi normalari va huquqiy hujjatlari mavjud. Bu sohada asosiy huquq manbasi bu Oliy Majlis Senati tomonidan 2013-yilning 12-dekabrida ma’qullangan O‘zbekiston Respublikasining “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi qonuni hisoblanadi. Ekologiya huquqining asosiy vazifasi va maqsadi-tabiat, jamiyat va inson o‘rtasidagi muvozanatni

saqlash, hozirgi va kelajak avlodga o'zimizda mavjud bo'lgan tabiiy resurslar va boyliklardan va ularni ekologik jihatdan muhofaza qilish hamda jamiyatdagi ekologik munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'ladi. Ba'zi vaziyatlarda ekologiya sohasida ham huquqbuzarliklar uchrab turadi. Bunday huquqbuzarlik aybdorning mavjud qonunlarga xilof bo'lgan xatti harakati yoki harkatsizligi natijasida ekologiya tizimiga yoki bo'lmasam ekologiyaning umumiy sohasining bir qismiga zarar yetkazsa, sohani mustahkamlash yoki uni rivojlantirishga tajovuz qilish, ekologik talablarni o'z vaqtida bajarmaslik, ekologiya sohasidagi qonun qoidalarni buzishda namoyon bo'ladi. Bu kabi tasir choralari barcha huquq sohalarida bo'lgani kabi ekologiya sohasida mavjuddir va albatta o'zining anchayin katta tasirini o'tkazadi.

Ushbu maqolaning boshida ekologiya huquqi va tizimiga davlat siyosati darajasida e'tibor berilayotganligi ta'kidlab o'tildi. Buning misoli o'laroq 2019-yilning 8-yanvarida O'zbekiston tarixida ilk bor Ekologik partiya vujudga kelganligidir. Bugungi kunga kelib bu partiyaning tashkil topishi ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun katta siyosiy kuch bo'ldi. Partiyaning asosiy vazifalaridan biri insonlar salomatligini asrash va tabiatning ekologik turg'unligini taminlashdan iboratdir. Endilikda ekologik partiya azolari o'zlarining ichidan ma'lum miqdordagi vakillarni davlatning oliy hokimiyati bo'lmish Oliy Majlis tarkibiga kirish uchun saylovga qo'yishi yoki Prezidentlikka o'z nomzodlarini qo'yishlari mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak davlatimiz fuqarolari o'zining huquqlaridan foydalanib, ma'lum bir majburiyatlarini ham bajarishi zarurdir. Ayniqsa jamiyat oldidagi va tabiat oldidagi majburiyati keng ko'lamliroqdir. Har birimiz ekologik madaniyatni hayotimizni bir qismi va turmush tarzimizning ajralmas bo'lagiga aylantirishimiz lozim. Barcha huquqbuzarlik uchun javobgarlik belgilanganligi kabi ekologiya normalarini buzganlik uchun ham ma'lum sanksiyalar mavjuddir. Ishonch bilan aytishim mumkinki tabiatning bir bo'lagi bo'lmish atmosfera va biosferani o'z holicha saqlab qolish ko'p jihatdan insonlarning faoliyati, ayniqsa ekologik huquqiy savodxonlik, ekologik huquqiy ta'lim tarbiya bilan bog'liq. Atrof muhitga oqilona munosabatda bo'lish har bir davlat fuqarosining burchidir. Ekologik muhitni yaxshilash va bir me'yorda ushlab turish uchun barcha davlatlar, xalqaro hamjamiyatlar, nohukumat uyushmalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yilgandagina amalga oshadi. Shundagina biz barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishishimiz, tabiat resurslaridan samarali foydalanib, ekologik tanglikni bartaraf qilishimiz mumkin. Tabiatni biz asrasak, ona tabiat bizni asraydi!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 30.04.2023y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikada ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 30-dekabrda PF-46-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 30-dekabrda PQ-76-son.
4. Ixtiyor Joldasov, Mohinur Mahkamova. FACTORS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN SOCIETY(2020) Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2020: 4.804.
5. Alimova Dilfuza Obidovna. EKOLOGIYA HUQUQI. PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS / 2023 – PART 19 /.
6. Shodimetov Yu. Ijtimoiy ekologiyaga kirish: Darslik. – T. 1994.
7. O‘zbekiston Respublikasining “Ekologik nazorat to‘g‘risidagi” qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yashil makon” umummilliy loyihasi.
9. Lex.uz.
10. Sadikov.uz.
11. Gazeta.uz.
12. Назарова, Ё. (2019). Methods for Correcting Errors in the Process of Learning English. Молодой ученый, (16), 280-282.
13. Aminovna, M. M., & Xalrajonovna, N. Y. (2021). Problems Of Classification And Certification Of Certain Insecticides According To The Customs Code Of The Republic Of Uzbekistan. The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering, 3(05), 17-24.
14. Марупова, М. А., Мамасаидов, Ж. Т., & Назарова, Ё. Х. (2022). ИЗМЕНЕНИЕ БЕЛКОВОГО ОБМЕНА БИОХИМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ КРОВИ ПОД ВЛИЯНИЕМ ИНСЕКТОАКАРИЦИДОВ. ББК 28.072 я43, 96.
15. Назарова, Ё. Х., & Марупова, М. А. (2022). К ВОПРОСУ ОБ ИСПОЛЬЗОВАНИИ ФЛАВОНОИДОВ ЛИСТЬЕВ ПЕРСИКА В КАЧЕСТВЕ ИНСЕКТИЦИДНЫХ ПРЕПАРАТОВ. Universum: химия и биология, (11-2 (101)), 64-69.
16. Nazarova, Y. X., & qizi Zulfiqorova, E. M. (2022). OSHQOZON-ICHAK TIZIMI KASALLIKLARINI TABIIY DAVOLASH USULLARI VA PROFILAKTIKASI. ZAMONAVIY TARAQQIYOTDA ILM-FAN VA MADANIYATNING O‘RNI, 2(24), 12-15.
17. Аскарлов, И. Р., Марупова, М. А., & Назарова, Ё. Х. (2022). PIRETROIDLAR SINFIGA MANSUB INSEKTITSIDLARNING TOKSIKOLOGIK

XUSUSIYATLARI VA TABIIY SOF EKOLOGIK PREPARATLAR HAQIDA. Журнал химии товаров и народной медицины, 1(2), 46-62.

18. Nazarova, Y. X., & Abbasjon, R. (2023). ATEROSKLEROZ KASALLIGINING BELGILARI, TURLARI VA DAVOLASH USULLARI. Journal of new century innovations, 22(2), 137-139.
19. Nazarova, Y., & Nematjonova, D. (2023). Effective Reading Strategies in Teaching English. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 4(2), 79-82.
20. Xalrajonovna, N. Y., & Surayyo, R. (2023). Organizmda Suv-Tuz Almashinuvining Boshqarilishi. JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING, 2(3), 12-14.
21. Nazarova, Y. X., & Samiyeva, S. (2023). ISHEMIK INSULTNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA DAVOLASH CHORALARI. GOLDEN BRAIN, 1(9), 112-114.
22. Nazarova, Y. X. (2023). RAXIT VA OSTEOPAROZ PATOGENEZI VA DAVOLASH USULLARI. GOLDEN BRAIN, 1(14), 212-216.
23. Abdurazakova, A. I. (2023). THE HARM OF DISHWASHING DETERGENTS AND ITS PREVENTION This article contains information about the work carried out in the Republic of Uzbekistan in maintaining public health, chemical detergents, their types and negative impact on human health and scientif. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(24), 212-214.

Nazarova, Y. X., & Soyibjonova, M. (2023). BOLALARDA ASAB TIZIMINI RIVOJLANISHIDA GIPOTERIOZNI AHAMIYATI. GOLDEN BRAIN, 1(15), 382-384.